

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimiz ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni loyihasi haqida

(UrDU rektori B.Abdullayevning Xalq deputatlari viloyat kengashi sessiyasidagi ma‘ruzasi)

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lining sifat jihatdan yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Bu yo‘ldagi dadil qadamlar 2016-yildan boshlandi, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Boshqacha so‘z bilan aytganda, biz bugun barchamiz yengni shimarib, Yangi O‘zbekistonni barpo etishga kirishdik, uning mustahkam zaminini yarata boshladik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarda bir necha o‘n yillar davomida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar bajarildi. O‘zbekiston tom ma‘noda “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” yuz tutdi.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta‘lim tizimlari hamda ilm-fan integrasiyasini, ta‘limning uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ayni paytda oliy ta‘lim sohasida bir qator muammolar saqlanib qolayotgani haqida to‘xtalib o‘tgandilar:

- Sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, ayniqsa, hududlarda nodavlat oliy o‘quv yurtlarini tashkil etish sekin bormoqda.
- Aksariyat bitiruvchilarning bilim va malakasi mehnat bozori talablariga javob bermayapti.
- Mahalliy ta‘lim muassasalarida innovasion faoliyat hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish darajasi juda past.
- Tizimda ilmiy darajali o‘qituvchilar ulushi o‘rtacha 37 foizni tashkil etadi.
- Oliy ta‘lim maskanlarini ilmiy laboratoriyalar bilan jihozlash, tizimda axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo‘llash darajasi ham past.

Xullas, bugungi kunda milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizasiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Ushbu farmon loyihasiga ko'ra, oliy ta'lim tizimini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan maqsadli tadbirlar doirasida quyidagilar taklif qilinmoqda:

-oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingida so'nggi 5 yil davomida doimiy ravishda birinchi 3 ta o'rindan birini egallagan oliy ta'lim tashkilotlariga oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash bo'yicha akademik va moliyaviy mustaqillik berish hamda mustaqillik mezonlari Yevropa universitetlari assosiasiyasi standartlariga muvofiq qabul qilish;

-Oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingida birinchi 10 ta o'rindan birini egallagan oliy ta'lim tashkilotiga mavjud ixtisosliklar bo'yicha ilmiy unvonlarni mustaqil berish vakolati berish;

-Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi va tizimida oliy ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar 2021- yil 1 fevralga qadar 2030- yilgacha xalqaro reytinglarda 2 ta oliy ta'lim tashkilotini – birinchi 500 ta o'rindagi, 8 ta oliy ta'lim tashkilotini – birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim tashkilotlar ro'yxatiga kiritish uchun tegishincha "2+500" va "8+1 000" loyihalarini ishlab chiqish va taqdimot qilish;

-Oliy ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1 sentyabrga qadar har bir hududda nodavlat, jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida kamida bittadan oliy ta'lim tashkilotini tashkil qilish;

-2021/2022 o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalari qaroriga muvofiq nomutaxassislik fanlari modul tizimi asosida o'qitiladi;

-oliy ta'lim dasturlari tegishli ta'lim sohasi bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi va professional standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlaridan iborat me'yoriy-uslubiy hujjatlar majmuasi sifatida joriy etiladi.

-2021/2022 o'quv yiliga qadar barcha oliy ta'lim tashkilotlarida axborot-resurs markazlari bazasida mavjud adabiyot, darslik, o'quv-uslubiy va boshqa qo'llanmalar raqamli formatga o'tkazilib, ularning elektron platformasi shakllantirilishini ta'minlash hamda ular bo'yicha raqamli yagona axborot qidiruv tizimini joriy qilish;

-Har bir fan kesimida ma'ruza, amaliy (seminar) va laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ishlar bo'yicha elektron modullarni ishlab chiqsin va 2021/2022 o'quv yilidan boshlab amaliyotga joriy etish;

Respublika oliy ta'lim kengashi bilan birgalikda bir yilda kamida ikki marotaba professor-o'qituvchilar, talabalar o'rtasida so'rovlar o'tkazish hamda jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o'rganish asosida oliy ta'lim sifatini oshirish, tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan zaruriy choralar ko'rish;

-Davlat oliy ta'lim muassasalariga xorijiy talabalarni jalb etish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida ta'lim xorijiy tillarda olib boriladigan guruhlar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish;

-2020/2021 o'quv yilidan boshlab xorijiy talabalarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishni yilda ikki marta semestrning boshida tashkil qilish;

-Xalqaro reytinglarda birinchi 1 000 ta o'rindan birini egallagan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining akkreditatsiyalangan ta'lim dasturlarini respublika oliy ta'lim tashkilotlari o'quv jarayoniga joriy qilish;

-2021/2022 o'quv yilida psixologiya sohasidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha davlat buyurtmasi asosidagi qabul parametrlari 30 foizga oshirish;

-Xalq ta'limi vazirligi pedagog kadrlarni malakasini oshirishda bolalar psixologiyasi bo'yicha o'quv darslarni o'tkazsin va mazkur jarayonga malakali, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.

-2021 yildan boshlab mamlakatimizning olis va chekka hududlaridan kamida 100 nafar yoshlarni nufuzli olimlarga biriktirish uchun grant ajratish;

-2021 yilda 500 nafar yoshlarni raqamli texnologiyalar, biologiya, genetika kabi yo'nalishlar bo'yicha 3-6 oylik xorijiy stajirovkaga yuborish;

-2020 yilda va 2021 yilda 43 ta, 2022 yil yakuniga qadar 38 ta samaradorligi yuqori bo'lgan yangi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish;

-Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish uchun xususiy sektor va ishlab chiqarish tarmoqlari bilan teng moliyalashtirish tizimiga o'tish;

-2021 yildan boshlab Fanlar akademiyasi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari bilan kelishilgan holda ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilm-fan bo'yicha direktor o'rinbosari, oliy ta'lim tashkilotlarining ilmiy ishlar va innovasiyalar bo'yicha prorektor va filial direktori o'rinbosari faoliyati samaradorligini baholash Innovasion rivojlanish vazirligining qo'shimcha vazifalari etib belgilash;

-Oliy ta'limdan keyingi ta'limning bir pog'onali tizimi joriy qilingan xorijiy davlatlar hamda ro'yxati har yili Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining qo'shma qarori bilan tasdiqlanadigan xalqaro reytinglarda birinchi 300 ta o'rindan birini egallagan oliy ta'lim tashkilotlarida olingan falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasi to'g'risidagi hujjatlarni O'zbekiston Respublikasida fan doktori (DSc) sifatida tan olinadi va nostrifikasiya qilinadi.

-2021 yildan boshlab oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar buyurtmasiga muvofiq ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi tematik grantlar tanlovi e'lonlari ko'lami 3 baravargacha kengaytiriladi, doktoranturaga qabul kvotalari bosqichma-bosqich oshirib borish kabi masalalar farmon loyihasidan o'rin olgan.

Normativ-huquqiy hujjatlar portalida muhokamaga qo'yilgan mazkur farmon joylarda qizg'in muhokama qilinmoqda. Jumladan, Urganch davlat universiteti olim va mutaxassislari tomonidan ham qator takliflar ishlab chiqildi. Jumladan:

Ayrim bandlari bo'yicha:

1. Qaror loyihasining 1-bandiga quyidagi jummalarni qo'shimcha abzas qilib kiritish: "professor-o'qituvchilar hamda ilmiy xodimlarining
2. jamiyatdagi o'rni va maqomini oshirish bilan birga ularning xuquqlari hamda daxlsizligini ta'minlash".
3. Qaror loyihasining 3-bandi a) kichik bandiga quyidagi jummalarni qo'shimcha abzas qilib kiritish: "ta'limning uzluksizligini inobatga olgan xolda, mavzular bo'yicha ketma-ketlik tamoyili asosida maktab, bakalavriat, magistratura bosqichlaridagi o'quv adabiyotlarini ilg'or mutaxassislarning tajribasiga hamda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarga asoslanib, xammulliflikda yaxlit kompleks nashr qildirishni yo'lga qo'yish". Shuningdek, ta'limning barcha bosqichlari, xususan oliy ta'limda o'quv jarayoniga muayyan darajada salbiy ta'sir kiladigan omillarni kamaytirish yoki butunlay bartaraf qilish zarur. Asosiy e'tiborni ta'lim sifatiga, eng birinchi o'rinda talabaning bilim olish darajasiga qaratish zarur. DTS, malaka talablari, o'quv reja, ishchi o'quv

reja, namunaviy dastur, ishchi o'quv dasturi, kalendar-tematik rejalarni va boshqa o'quv-me'yoriy xujjatlarni unifikatsiya qilish, ya'ni ta'lim jarayoniga dahldor rasmiyatchilik xujjatlarini kamaytirish, ko'pi bilan ikkita, imkoni bo'lsa barchasini bittaga kamaytirish zarur.

4. Qaror loyihasining 11- bandida "2022/2023 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim muassasalari va kasb-hunar maktablari bitiruvchilarining shahodatnomasi (diplom ilovasi)dagi 11 yillik ta'limning 6 yillik baholarining o'rtacha ko'rsatkichi kiritiladi va ushbu ko'rsatkich oliy ta'lim tashkilotiga kirish imtihonlarida inobatga olinadi" deb yozilgan qismiga quyidagilarni qo'shimcha qilish zarur: "Ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktablari, maqom maktab-internatlari va bolalar musiqa va san'at maktablari bitiruvchilari 5 yillik baholarining o'rtacha ko'rsatkichi kiritilib, alohida iqtidor talab etiladigan tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'tkaziladigan kirish ijodiy imtihonlarda inobatga olinadi".
5. Qaror loyihasining 23-band uchinchi abzasga quyidagicha qo'shimcha kiritish: "har bir professor-o'qituvchining (gumanitar, texnika, tabiiy fanlar va boshqa mutaxassislik xususiyatini inobatga olgan xolda) shaxsiy reytingini aniqlash mezonlari ishlab chiqilsin hamda shunga asosan moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilsin".
6. Qaror loyihasining 29-bandida doktoranturaga qabul kvotalari oshirilishi necha marta ekanligi aniq ko'rsatilsa yaxshi bo'lar edi.
7. Qaror loyihasining 1-ilovasidagi kompleks chora-tadbirlar dasturining 28-bandida "Professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarini rag'batlantirish" qayd etilgan bo'lib, unda akademik liseylarni ham nazarda tutish maqsadga muvofiq. Qaror loyihasida akademik lisey rahbar va pedagoglarining ish haqlarini oshirish bandini kiritish lozim.
8. Qaror loyihasining 1-ilovasidagi kompleks chora-tadbirlar dasturining "V. Oliy va professional ta'limni mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, innovasion faoliyat va raqobatbardosh ilmiy-texnika mahsulotlari bozorini kengaytirish" bandidagi "ta'limni mazmuni" jumlasini "ta'limning mazmunini" shaklida yozish kerak yoki "mazmuni" so'zini tushirib qoldirish lozim.
9. Qaror loyihasining 1-ilovasidagi kompleks chora-tadbirlar dasturining "V. Oliy va professional ta'limni mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, innovasion faoliyat va raqobatbardosh ilmiy-texnika mahsulotlari bozorini kengaytirish" bandiga quyidagi jummalarni qo'shimcha chora-tadbir sifatida kiritish: "Oliy ma'lumotli kadrlarning davlat tilida ish yuritish ko'nikma va

malakalarini shakllantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida "Davlat tilida ish yuritish" fanini o'qitishni joriy qilish".

Umumiy takliflar:

O'quv adabiyotlarni yaratish uchun tegishli vazirliklar tomonidan kamida 2 oy oldin "O'quv adabiyoti yaratish bo'yicha tanlov" shartlarini mualliflar e'tiboriga yetkazish kerak. O'quv adabiyotlari yaratishda ishtirok etmoqchi bo'lgan mualliflar (mualliflar guruhi) shu adabiyotni yaratish bo'yicha o'zlarining konsepsiyalari (qisqacha mazmuni, tuzilishi, zamonaviy axborot va kommunikasion texnologiyalardan foydalanish darajasi, mavjud adabiyotlardan afzallik jihatlari)ni taqdim qilishlari kerak. Tanlov komissisi eng yaxshi konsepsiyalar mualliflari bilan shartnoma tuzib, shu fan bo'yicha bir nechta (3-4 atrofida) muqobil o'quv adabiyotlarni yaratilishiga ruhsat beradi. Bu adabiyotlarning hammasi teng kuchli bo'lib ta'lim muassasalarida tanlab foydalanish imkoni yaratilishi kerak.

1. Ta'lim- tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylar, professor- o'qituvchilar va ilm-fan soxalari vakillarining jamiyatimizdagi maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish; inson omili qatnashmaydigan moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

2. Ba'zi ixtisoslik (tor) sohalarda o'quv dasturlariga mos darsliklarni yaratish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida "Kitob va darsliklarning chop qilinishini moliyalashtirish jamg'armasi"ni tashkil qilib, har yili o'quv dasturlariga mos darsliklarni chop etish bo'yicha jamg'arma mablag'lari hisobidan tanlov asosida davlat grantlari ajratilishini ta'minlash lozim.

3. O'z-o'zini moliyalashtirishga o'tgan OTMlarga ehtiyoj va zaruratdan kelib chiqib, shtat birliklari sonini mustaqil tarzda ko'paytirish yoki kamaytirish xuquqini berish.